

Bo'lajak o'qituvchilarni art pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida

O'.R.Zubaydullayev SamISI, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, ustuvor yo'nalishlar, ta'lim, tarbiya, texnologiya, art-pedagogika, tizimlilik, yondoshuv.

Ключеве слова: критическое мышление, самостоятельный поиск информации, приоритеты, образование, воспитание, технология, артпедагогика, систематизация, подход.

Key words: critical thinking, independent search for information, priorities, education, upbringing, technology, art pedagogy, systematization, approach.

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Ayniqsa, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o'rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari umumiy sonining qariyb 25 foizini «Pedagogika» mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbi bo'yicha mehnat qilish motivasiyasi past darajada ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Oliy ma'lumot olgan bitiruvchilarning hammasi ham talabga javob berayaptimi? Bo'lajak kadrlarda, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlik mukammal darajada shakllanganmi degan savol atroflicha o'rganilishi lozim bo'lgan masala sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar aniqlashtirilganligi va bulardan quyidagilari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining pastligiga ta'sirini o'tkazmoqda:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 13 iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6260-son Farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmoni

talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmaganligi;

ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmaganligi, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermasligi;

professor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolganligi;

o'quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermasligi, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmaganligi;

oliy ta'lim muassasalarida fan olimpiadalarini o'tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmaganligi, olimpiadalar g'oliblari bilan ishlash tizimli ravishda yo'lga qo'yilmaganligi;

iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emasligi;

oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjudligi kabilar.³

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

- gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;
- imkoniyati cheklangan talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta'limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;
- barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish;
- fan sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son [Farmoniga](#) asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"

- xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, talaba-yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi, o'quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar bo'yicha talabalar fikr-mulohazalarini o'rganish maqsadida ular o'rtasida har yili respublika miqyosida milliy so'rov o'tkazish;
- oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ishdan ajralmagan holda o'qishini ta'minlash maqsadida sirtqi va kechki ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish;
- talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish kabilar.⁴

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarini ta'limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish;
- bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish;
- umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;
- xalq ta'limi tizimi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, shu jumladan ta'lim sohasiga yosh kadrlar kirib kelishini rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablari o'qituvchilariga qo'shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim infratuzilmasini shakllantirish;
- uzluksiz ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirishga ko'maklashish va qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish kabilar.⁵

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son [Farmoniga](#) asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmoni

mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 20 aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi. Qarorda oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab olindi. Jumladan:

- oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari inobatga olgan holda optimallashtirish;
- yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;
- pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;
- oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integrasiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish;
- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqloq g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;
- oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.⁶

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 5 iyunda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 20 aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori

ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarorida oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirishga va ularda innovasion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilanib, unda yangi g'oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida «Yosh ekspertlar guruhi»ni tashkil etish, o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovasion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish hamda har bir oliy ta'lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o'qitishni alohida o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta'lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish⁷ ko'rsatib o'tilgan.

Davlatimiz tomonidan yuqorida talab etilayotgan qator vazifalarning tub va asosiy maqsadi jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo'sha oladigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda ularni kasbiy faoliyatiga yetuk kadr qilib yetishtirishdan iborat.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli ta'minlash, unga yangicha yondashuvlarni tadbiq etish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;
- pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;
- pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovasion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;
- sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish;

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 5 iyunda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori

- pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borish, ular bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish;
- oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;
- pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish;
- yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.⁸

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integrasiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovasion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.⁹

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli san'at turlaridan foydalanib bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy ta'lim (san'at) muhitidan foydalanish ularda hissiy-ruhiy zo'riqishlarisiz yuqori natijaga va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Jamiyatning tez sur'atlarda rivojlanishi globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va bu orqali kelgusi ta'lim sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish aynan ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish omili bo'lib xizmat qiladi.

Art-pedagogika – pedagogika fanining bir tarmog'i sanalib, “art” – san'at, “pedagogika” – ta'lim-tarbiya degan ma'noni beradi. Ya'ni, “san'at orqali ta'lim-tarbiya berish”ni nazarda tutadi. Art-pedagogika nazariy va amaliy jarayonda insonlarning badiiy tomondan rivojlanishini hamda shaxsning madaniyatini san'at va badiiy-ijodiy faoliyat orqali shakllanishini bildiradi.

Art-pedagogikaning mazmun-mohiyati ta'lim va tarbiyada badiiy faoliyatning turli ko'rinishlari hamda shaxsning san'at vositalari orqali rivojlanishida, shuningdek, ularda badiiy-madaniy va amaliy bilim, ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4623-son Qarori

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni

Bu esa, art-pedagogika asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimining komponentlari, shakl, metod va vositalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at asarlarining yuksak sifatini ta'minlash, tasviriy san'at ijodkorlarining salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarish, «ustoz-shogird» va badiiy ta'lim an'alarini saqlagan holda o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tatbiq etish, shuningdek, san'at asarlarida milliy va umuminsoniy an'alarining yuksak darajada ifoda etilishiga erishish¹⁰ orqali o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, bu bilan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini takomillashtirish fikrimizning asosiy maqsadidir.

Rezyume

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni art pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida ko'rilgan.

Rezyume

В данной статье рассматривается подготовка будущих учителей к профессиональной деятельности на основе артпедагогике как педагогическая проблема.

Summary

This article considers the preparation of future teachers for professional activities on the basis of art pedagogy as a pedagogical problem.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son Qarori